

NUTQ KAMCHILIGIGA EGA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA  
AGRAMATIZM

Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

Aralova Iroda Melikuzi qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Usbu maqolada Bola tomonidan nutqni o'zlashtirish murakkab jarayon ekanligi va uning rivojlanishida bir qancha bosqichlarni bosib o'tishi: alohida til hodisalarining ibtidoiy, amorf ishlatalishidan boshlab, til normalarini to'liq egallahsgacha bo'lgan jarayonni yoritib berilishi.*

**Kalit so'zlar:** *Bola, nutq, fikrlash, mayda qo'l motorikasi, pedagogika, psixologiya, fiziolog, shifokor.*

**Annotation:** *In this article, the acquisition of speech by a child is a complex process and its development goes through several stages: from the primitive, amorphous use of individual language phenomena to the complete acquisition of language norms.*

**Keywords:** *Child, speech, thinking, fine motor skills, pedagogy, psychology, physiologist, doctor.*

**Аннотация:** *В данной статье овладение речью ребенком представляет собой сложный процесс, развитие которого проходит несколько этапов: от примитивного, аморфного использования отдельных языковых явлений до полного усвоения языковых норм.*

**Ключевые слова:** *Ребенок, речь, мышление, мелкая моторика, педагогика, психология, физиолог, врач.*

Bola tomonidan nutqni o'zlashtirish murakkab jarayon bo'lib, uning rivojlanishida bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi: alohida til hodisalarining ibtidoiy, amorf ishlatalishidan boshlab, til normalarini to'liq egallahsgacha.

Nutqni assimilyatsiya qilishning birinchi bosqichi - bolaning murojaatli nutq (ta'sirli nutq) haqidagi tushunchasini rivojlantirish. Bu tushuncha funktsional jihatdan so'zga faol yoki yo'naltiruvchi reaktsiyada ifodalanadi. Bolaga alohida so'zlar bilan emas, balki eng oddiy bog'langan gaplar ("menga lala bering", "qalamingga oling" va hokazo) bilan murojaat qilinganligi sababli, erta yoshdagi bolada shartli bog'lanish shakllanadi.

Nutqni bunday tushunish, bolada mustaqil nutq bo'lmasa, uning rivojlanishida murakkab yo'ldan o'tadi, hajmi oshadi va sifat jihatidan o'zgaradi.

Ikkinchi bosqich faol nutqning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, bu o'ziga xos umumlashtirishdir, chunki bola allaqachon nutq tovushiga emas, balki uning ma'nosiga ham munosabat bildiradi.

Mashhur pedagog V. A. Suxomlinskiy: «bolaning aqli uning barmoqlari uchida joylashgan», - deb aytgan. M. M. Kolsova o'z tadqiqotlarida har bir barmoq bosh miya qobig'ida o'zining «ustunligiga» ega ekanligini isbotlagan. U qo'llarni nutq organlari sifatida

qarash uchun to'liq asos bor,- deb ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazarga ko'ra, nutqning yana bir a'zosi - qo'l proyeksiyalaridir.

Tovushlar artikulyatsiyasi barmoqlarning nozik harakatlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Barmoqlar proyeksiyasining rivojlanganligi miya faoliyati va nutqiy reaksiyalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qo'l motorikasi va nutqiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik bolalar va o'smirlar fizologiyasi universiteti olimlari tomonidan isbotlangan. Jumladan, V. Antakov-Fomin, M. I. Kolsova, YE. I. Iseninlarni ham [88] shu olimlar qatoriga qo'shish mumkin. I. M. Sechenov insonning qo'l harakatlari nasliy berilmaydi, bu ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga kelib, u atrof-muhit bilan faol munosabat jarayonidagi muskullar va ko'ruv sezgilarini o'rtasidagi assotsiativ aloqalar natijasidir, - deb ta'kidlagan. N.M. Shelovanov, N.L. Figurin, M.P. Denisova, M.Y. Kostyakovskayalar qo'lning nozik harakatlarini egallash, ko'rish, anglash, kinestetik sezgilarni tananing fazodagi joylashuvi va holatini his qilishni rivojlanish jarayonida vujudga kelishini ko'rsatib o'tishgan. Predmetning ko'rinishi qo'lning unga nisbatan harakatlanishiga olib keladi. Qo'llarning tashkiliy harakatlari bolada asta-sekin hayotining birinchi yili davomida shakllana boradi. Barmoqlar musht qilib bukiladi, yoyiladi. Predmetlarni olish uchun muhim harakatlarni amalga oshirishni boshlaydi. Qo'l- alohida inson organi sifatida faoliyat yurita boshlaydi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mактабгача yoshdagi bolaning rivojlanishidagi eng muhim jihatlaridan biri-uning psixomotor sohasining, jumladan barmoq harakatlari koordinatsiyasining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi. Xususan, V. I. Beltyukov, M. M. Kolsova, L. A. Kukuev, L. A. Novikov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari psixomotor ko'nikma va nutq rivojlanishining ontogenetik o'zaro bog'liqligi mavjud, degan xulosa kelish imkonini beradi. Masalan, qo'l harakatlari tarixan inson taraqqiyoti jarayonida nutq funksiyasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

M. M. Kolsova "...tizimli harakatlar va davomli mashqlar nutqning rivojlanishiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi va ...bosh miya po'stlog'i faoliyati samaradorligini oshirishning kuchli vositasi" - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari, muallif psixomotor malakalarning rivojlanishi orqada qolsa, nutq rivojlanishi ham kechikib rivojlanishini ta'kidlaydi.

M. D. Maxaneva ta'kidlaganidek, harakat sohasining holati va rivojlanishi u yoki bu harakatlarni muayyan motor aktlarini, motor faoliyatini o'zlashtirishdagi imkoniyatlar inson hayotidagi ko'p narsalarga: hayot uchun zarur harakat usullaridan (toqqa chiqish, yurish, yugurish va hokazo.) maktabgacha yoshdagi elementar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maktabgacha yoshida o'quv-mehnat faoliyatini o'zlashtirish va nihoyat, bo'lg'usi kasbi uchun talab qilinadigan koordinatsiyalashgan harakatlarni shakllantirish va rivojlantirishiga bog'liq. [110]

M.M.Kolsova agar ota-onalar bolaning nutqi rivojlanmayotganligiga o'z vaqtida e'tibor berishmasa, nutqning rivojlanishidagi kechikish bolaning intellektual rivojlanishiga ta'sir qiladi: bilish jarayonlarini sustlashtiradi, muloqotning rivojlanish jarayonini buzadi, deb ta'kidlagan. Bunday holatda, muammo bolaning motor faoliyati va qo'llarning mayda motorikalarini rivojlantirish bilan hal qilinishi mumkin. Harakatlarning shakllanishi nutq ishtirokida yuzaga kelishi xaqida M.M.Kolsova shunday deb yozadi: "qo'l barmoqlarining harakatlari insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida nutq funksiyasi bilan uzviy bog'liq.

Ibtidoiy odamlarda muloqotning birinchi shakli imo-ishoralar edi. Odamlarda qo'l va nutq funksiyalarining rivojlanishi parallel ravishda davom etdi. Taxminan bolaning nutqiy rivojlanishi ham xuddi shundaydir. Avval barmoqlarning nozik harakatlari rivojlanadi, keyin tovushlar artikulyatsiyasi paydo bo'ladi; nutq reaksiyalarining barcha keyingi takomillashuvi barmoq harakatlarini mashq qildirish darajasiga bevosita bog'liqdir".

Shunday qilib, "qo'lni nutq organi – artikulyatsion apparat bilan bir xil deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud. Shu nuqtai nazarga ko'ra qo'lning proyeksiyasi miyaning boshqa nutq zonasidir" (M.M. Kolsova, M. S. Ruzina). Tadqiqotchilar motorikaning holati va nutq o'rtaqidagi uzviy bog'liqlikka alohida ahamiyat berdilar. V. A Gilyarovskiy nutqning kechikishi motorikaning umumiy rivojlanmaganligida namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

V.I Dresvyannikov nutq va umumiy ontogenezning bevosita paralleligi va o'zaro bog'liqligini ko'rsatib, motorikaning rivojlanishi va ekspressiv nutq bolada birgalikda rivojlanishini ta'kidlaydi. Bu sohadagi maxsus tadqiqotlar natijalariga ko'ra, harakatlarning rivojlanishidagi taraqqiyot (harakat analizatorining rivojlanishi) asosan inson miya funksiyalarining rivojlanishidagi taraqqiyotni belgilab beradi. Rivojlangan motorikaning inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida juda ko'p mutaxassislarning turli xil qarashlari mavjud: fiziologlar, shifokorlar, psixologlar, pedagoglar va boshqalar.

Fiziologlar (N.A.Bernshteyn I.A.Fomin, Y.N.Vavilov harakatni insonning tug'ma tabiiy hayotiy ehtiyoji - deb hisoblashadi. Ularning fikricha, harakatga bo'lgan ehtiyojning to'la qondirilishi organizmning barcha asosiy tizimlari va funksiyalari shakllananishini anglatadi. [42] [168]

Shifokorlar (B.V. Petrovskiy, A.A. Baranov va boshqalar bola harakatlarsiz holda sog'lom o'sa olmasligini ta'kidlashadi. Ularning fikricha, harakat turli kasalliklarning, ayniqsa, yurak-qon tomir, nafas va asab tizimlari bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, harakatlardan eng samarali davolash va korreksiya vositalari sifatida keng foydalilanadi. Chunki, aynan harakatlar butun tanada bo'layotgan jarayonlarni boshqaradi va tartibga soladi. Shuning uchun bolalardagi rivojlanishning qanday kechishini o'rganishdagi asosiy mezonlardan birini ham harakatlarning rivojlanish darajasini o'rganish tashkil etadi. Bola hayotining ilk yoshida bolalar bilan logopedik ishlarni tashkil etishda qator omillarni jumladan: yosh omillari va nutqiy funksiya rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

N.A.Bershteynning harakatlarni tashkil etish nazariyasining asosida umumiy motorika xususiyatlarini takomillashtirish orqali nutqni tashkil etuvchi artikulyatsion apparat a'zolari harakatlarini rivojlantirish imkonini beradigan umumiy motorika va nutqning o'zaro bog'liqligi tamoyili yotadi (G.R.Shashkina). M.A.Piskunov olib borgan tadqiqotlari natijalariga tayangan holda nutqiy motorika va unga qo'shilib keladigan harakatlar (mimik muskullar, qo'llarning imo-ishoralari) o'rtaSIDA uzviy aloqa mavjudligini ta'kidlaydi. M.A.Piskunov artikulyatsion motorikaning sifati to'g'ridan-to'g'ri organizmning nerv-muskullar apparati holatiga va umumiy harakat ko'nikmalariga bog'liq, deb hisoblaydi.

**ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. M.Ayupova. Logopediya. Toshkent.O'qituvchi 2007 yil.
2. L.Mo'minova. M.Ayupova. Logopediya. Toshkent.O'qituvchi 2013 yil.
3. V.Raxmonova. Defektologiya va logopediya asoslari. Toshkent.2020 yil.
4. J.F.Xusanova. To'g'ri gapiraylik. Toshkent.O'qituvchi 2005 yil.
5. L.Mo'minova. M.Qahramonava. Logopedik terminlarining ruscha -o'zbekcha izohli lug'ati. Toshkent.O'qituvchi 2008 yil.
6. R.Sh.Shomaxmudova. L.Mo'minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent.O'qituvchi 2014 yil.